



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

**Achilova Soxiba Xamidovna**

Qo‘qon Davlat universiteti, Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

**Akramova Fazilatbonu Iqboljon qizi**

Qo‘qon Davlat universiteti talaba.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning mazmuni hamda uning ijtimoiy asoslari, axloqiylik sifatleri haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qadriyat, milliylik, odamiylik, mehr-oqibat, madaniy-tarixiy meros, ma‘naviy tarbiyalash, vatanparvarlik hissi, milliy qadriyatlar tizimi, axloqiy sifatler.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются содержание воспитания детей дошкольного возраста в дошкольных образовательных организациях на основе национальных ценностей, а также его социальные основы и нравственные качества.

**Ключевые слова:** ценности, национальность, человечность, доброта и сострадание, культурно-историческое наследие, духовное воспитание, чувство патриотизма, система национальных ценностей, нравственные качества.

**Abstract:** This article discusses the content of educating preschool children in preschool educational institutions on the basis of national values, as well as its social foundations and moral qualities.

**Keywords:** values, nationality, humanity, kindness and compassion, cultural and historical heritage, spiritual education, sense of patriotism, system of national values, moral qualities.

Qadriyatlar – har bir millatning ma‘naviy qiyofasini namoyon etadi. Xalqimizning ming asrluk o‘tmishi, qadriyatlari va milliy madaniyatini aks ettiruvchi milliy ananalarimiz urf-odatlarimiz liboslarimiz qadriyatlarimizning muhim qismi bo‘lib, butun millatning ma‘naviy qiyofasini o‘zida namoyon etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu narsani aloxida takidlash kerakki xar bir xalqning milliy madaniyatlari va qadriyatlarini bir biridan ajralgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ayni vaqtda bugungi kunda dunyo hamjamiyati to-monidan mafkuraviy globallashuv tufayli milliy o‘zlik va milliy g‘ururning rivojiga, millatning intellektual, ma‘naviy-axloqiy, etno-madaniy va tarixiy qadriyatlarining barham topishiga, inson tafakkur tarzi va dunyoqarashini toraytirishga, e‘tiqodini, ruhiy dunyosini izdan chiqarish-ga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani e‘tirof etilmoqda.

Ayni paytda, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning u yoki bu davr madaniyati, qadriyatlari haqida yorqinroq tasavvurga ega bo’lish uchun madaniy qatlamlar haqida bilimga tushunchaga ega bo’lishi maqsadga muvofiqdir,

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlari - ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda to’ngan xolda, tarbiyachilarning tarbiyalanuvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o’zaro amaliy va nazariy muloqatida namoyon bo’ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o’zining mohiyatiga ko’ra bir necha turga bo’linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yuq joyda biron narsaning qadr qimmatini haqida so’zlash bema’nilikdir. Shuning uchun ham inson qadr qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog’lig’ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo’nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro’y berayotgan tub o’zgarishlarning, islohotlarning archasi kishilar hayoti to’q, boy, go’zal bo’lishi, inson o’zini chinakam erkin his etishi, o’z mehnati natijasining, o’z taqdirining, o’z mamlakatining egasi bo’lishini ta’minlashga qaratilgandir.

Qadriyatlar ma’lum bir xalqning ko’p ming yillik tarixiy- madaniy tajribalari sifatida shakllanib, ularning turmush tarzi, tafakkur mahsuli sifatida yaratilgan .

Xalqning qadimiy urf- odatlari, an’analari, marosimlari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mansublik ifodasidir. Qadriyatlar qaysidir millat va xalqlarning hursandchilik va qayg’uli o’tmishi, tarixiy, madaniy tajribalari, sabr bardoshi, baxtiyor kunlarining ifodasidir. Bizning fikrimizcha, umuminsoniy qadriyatlar tushunchasi umumjamiyat ahamiyatiga ega bo’lgan, insoniyatning mavjudligi, o’tmishi, buguni va kelajagini, yashash tarzining asosiy yo’nalishlari, tartib qoidalarini, odamlarning eng azaliy orzu-umidlari va ideallarini o’zida aks ettiradigan qadriyatlarining umumiy shakllarini ifodalaydi.

Milliy qadriyatlar, ularning ahvoli, kelajak taqdiri kishilarni doimiy qiziqtirib kelgan muammolardandir. Afsuski, o’tmishda ushbu masalaga jamiyatimiz tomonidan yetarli darajada e’tibor berilmadi. Endilikda demokratik jarayonda ko’p millatli mamlakatimiz milliy qadriyatlarni qayta idrok etish va anglashni talab etadi. Milliy qadriyatlar tushunchasi tor va keng ma’noda ishlatiladi. Tor ma’noda quydagicha ifodalanadi: milliy qadriyatlar muayyan bir millatning, elatning qiziqishlari va manfaatlari yig’indisini, mazmunini tashkil etadi. Keng ma’noda quydagicha ifodalanadi : milliy qadriyatlar muayyan bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaati va qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig’indisidir.

**Milliy qadriyatlar asosida axloqiylik sifatleri har bir shaxsda quyidagicha namoyon bo’ladi:**

- o’z millatining milliy va ma’naviy sohada erishgan yutuqlari, uning obro’-e’tibori bilan g’ururlanish , faxrlanish hissini o’zida his qilishi, millatning har qanday muammolariga befarq bo’lmaslik va unga javobgarlik hissini anglashi;

- o’z xalqi , millatiga g’amxo’rlik qilishi;

- o’z xalqining , millatining moddiy-ma’naviy me’rosini ardoqlash, asrab-avaylashi;

-xalqning milliy- ma’naviy,umumbashariy qadriyatlarini, milliy an’analarini, milliy urf-odatlarini hurmat qilishi, ularni boyitishga bir so’z bilan aytganda takomillashtirishga o’z hissasini qo’shishi;

-o’z xalqiga,millatiga bo’lgan mehr-muhabbatini amalda ko’rsata olish kabilar. Milliy qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarbiyalash bu o’zligini anglash, milliy o’z-o’zini anglash bilan bevosita bog’liqdir. Zotan, milliy qadriyatlar asosida axloqiylik millatning qadr-qimmatini, or-nomusini, shon-sharafini tushunib yetgan, anglagan insondagina bo’ladi. Demak, har bir jamiyat a’zosi, ota-onalar, pedagog-tarbiyachilar oldiga yosh avlodni qalbida milliy va umumbashariy qadriyatlarni tarkib toptirish jarayonida axloqiy sifatlarni ham shakllantirish lozimdir. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarkib toptirish va tarbiyalash nihoyatda muhim bo’lib, uning o’ziga xos xususiyatlari mavjud.

Bolalarda qadriyatlar asosida axloqiy sifatlarni tarbiyalash jarayonida ularning ongiga o’zaro birlik va aloqadorlikda ta’sir etishi va mazmun- mohiyati bilan mos bo’lishi kerak. Millatning milliy-madaniy merosdan bahramand bo’lishi, o’z asriy tarixi, o’ziga xos qadimiy san’ati, ma’naviy qadriyatlari, diniy va dunyoviy bilimlari asosida kamtarlik, mehnasevarlik, erksevarlik, haqiqatgo’ylik, mas’uliyatlilik, saxiylik, poklik kabi axloqiy tushunchalar milliy g’ururni shakllantirish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ma’naviy jihatdan barkamol bo’lishida milliy g’ururni shakllantirish tarbiyasi asosiy o’rin tutadi. Shaxsning kamolotida axloqiylik, milliy iftixor, o’z-o’zini anglash, faxrlanish tuyg’ularining zaruratini tan olish, maktabgacha yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirishda milliy qadriyat namunalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.Bolalar ongida milliy o’zbekona iftixor tuyg’usini shakllantirish va axloqiylikni tarbiyalashda va muammolari ustida ishlashda, albatta bolaning yoshi dunyoqarashi va oilaviy sharoiti inobatga olinishi kerak.

#### **Adabiyotlar:**

1.Kayumova, N. M., & Ro’ziyeva, M. M. Oilada bolalarni xalq merosi vositasida ma’naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalq pedagogikasining o’rni. Uchinchi renessans davrida Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning roli” mavzusidagi talabalarning Ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 102-104.

2. Milliy qadriyatlar va ma’naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2023y

3. Achilova S. Воспитание нравственных качеств у детей с помощью узбекских народных игр. Журнал. Ilm fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo’llanilishi. 2023, 25-29 .

4. Esonova M.A. Sharq mutafakkirlarining ma’rifatli inson kamolati haqidagi fikrlari. International scientific and practical conference “international experience and modern approaches in preschool education” 15 may, 2024